



Toshkent viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-noyabr dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI**
- IV. METAMA'LUMOTLAR**
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR**


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 8 826 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 27 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 8 799 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 37 908,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ga teng bo'ldi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 4 962,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 94,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 32 946,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 13,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 888,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 10,7 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



**Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
(ulushi foizda)**




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 326 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 37 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 289 tani tashkil qildi.

Toshkent viloyati bo'yicha 2025- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 50 981,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 12,9 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 41 788,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 9,3 % ga to'g'ri keldi. Toshkent viloyatining jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 82,0 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'ati Pskent (1 889,2 m.) Quyi Chirchiq (30,1 m.), Zangiota (9,2 m) tumanlari hamda Chirchiq (5,7 m.) shahrida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 790 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 11 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 779 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-noyabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 15 132,2 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 16,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 77,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul:
Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi

Ijrochi: M.Mirzokirov
Tel: (+99871)203-45-00
(4541)

Manzil: Toshkent shahar Mirobod
tumani Yangi Qo'yliq ko'chasi, 2-
uy